

FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONANING VAZIFASI HAMDA BOLANING OILADAGI RUHIY HOLATI

Babasheva Shoira Davlatbay qizi

*Qoraqolpog'iston Respublikasi Beruniy tumani 61-umumiy o'rta ta'lif
maktabi psixologi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologiyada, hadislarda hamda Qur'oni Karimda ota-onaliga va farzandlar o'rta sidagi munosabat muammosi, odob-axloq, ayollarining turmushdagi o'rni va vazifalari, er va xotin o'rta sidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi tahlil etilgan. Unda olimlarning ota-onaliga va farzand munosabati borasidagi fikrlari, qarashlari, ya'ni shaxs tarbiyasi, kamoloti, bursh va mas'uliyatlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ota-onaliga, oila, muammo, odob, axloq, urf-odat, nikoh, muhabbat, nizo, farzand, kelishmovchilik, qadriyat.

KIRISH

Oila – ta'lif va tarbiya maskani bo'lib, dunyoga kelgan farzand oilada axloq-odob qoidalarini, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarni o'rganadi. Shuning ushun oila davlatning asosiy e'tibor markaziga tushib, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 63-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi» uni mustahkam himoyada ekanligini belgilab beradi. Jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilani tinchligi bu o'z navbatida davlat ravnaqining garovi hisoblanadi.

Dunyoga kelgan har bir farzand oila deb atalmish muqaddas dargohda otaonasidan poklik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ta'lif va tarbiya, odob va ahloq qoidalarini, urf-odat va qadriyatlarni o'rganadi.

«Oila – bu bir kunlik, bir yillik emas, balki bir umrlik makondirki, bu makonda

har kun, har soatda qanchadan-qancha voqealardan hodisalar, yangidan-yangi tashvishu quvonchlar sodir bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev buyuk allomalarining ushbu fikrini keltirib o'tdilar: «Bola ota-onalarning qo'lida bironomnatdir». Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi, haqiqatan ham, juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas. Darhaqiqat, farzandga beriladigan tarbiya dastlab oila muhitida bajariladigan eng asosiy vazifadir. Farzandlar o'z uylarida kuzatgan ma'naviy muhitdan nusxa oladilar». Bizning fikrimizcha ham ota-onalarning farzandlar tarbiyasi bilan doimiy ravishda qiziqib, uning xatti-xarakatlari bilan o'rtoqlashib, aloqalarni o'rnatib borishi ijtimoiy muhiddagi ijobiy munosabatlarga olib keladi. Oila – o'ziga xos ijtimoiy birlilik.

Uning asosida er-xotin ittifoqi, qarindoshlik munosabatlari, maishiy hayot birligi, axloqiy va huquqiy ma'suliyat hamda eng asosiysi ota-onalarning bolalarini tarbiyalash majburiyatlarini turadi.

Oila deganda ko'z oldimizga birinchi navbatda ota-onalarning bolalarini keladi. Oila jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shu bilan birga oilada yurtning kelajagi ya'ni barkamol farzandlar o'sib ulg'ayadi, kamolga yetadi. Biz oilani bir bog' deb tasavvur qiladigan bo'lsak oiladagi farzandlar – mevali daraxt, ota-onalar esa bog'bonlardir. Mana shu bog ichidagi mevali daraxtlar doim bog'bonga muhtoj. Farzand ham xuddi shunday, ota-onalarning parvarishiga, ota-onalarning ko'magiga muhtoj. Bog'bon qachonki mevali daraxtini o'z vaqtida parvarishlasa undan mo'l hosil oladi. Ota-onalarning qachonki farzandini to'g'ri tarbiyalasa, kelajakda u ham albatta o'z mevasini beradi. Agar aksincha bo'lsa-chi ? Oilada ota-onalarning farzandga e'tibor bermasa, farzandi u urchun ahamiyatga ega bo'lmasa, xuddi bog'dagi mevali daraxt meva bermaganidek, ota-onalarning bag'ridagi farzand ham o'z yutuqlarini bermaydi.

Keling, endi ota-onalarning tarbiyalari, ularning tarbiyalari to'g'risida gaplashsak. Aslida tabiatdagi barcha jonzot bolasi urchun jon kuydiradi. Odamzod esa nasli davomchisi bo'lgan dilbandi urchun ulardanda ziyod qayg'uradi.

Chunki ota-onas farzandi ulg'ayib, el-yurt koriga yaraydigan, yaxshi joyda ishlab, farovon hayot kechiradigan, hurmatga sazovor inson bo'lismeni xoxlaydi. Bu ezgu orzular amalga oshishi uchun albatta ota-onas farzandiga to'g'ri tarbiya berolishi kerak. To'g'ri tarbiya berish uchun ham ota-onas qaysidir ma'noda ota-lik va onalik roliga tayyor bo'lishi lozim. Chunki bola dunyoga kelgan payti hamma narsani bilib tug'ilmaydi. U xuddi "top-toza qog'oz". Bu qog'ozga sekin-asta ota-onas bergan tarbiya, muhit tarbiyasi va hayot qonuniyatlarini yozilib borilaveradi. Qachonki ota-onas farzandini avaylab, e'zozlab katta qilsa u shunchalik mehroqibatli bo'ladi. [2]

Jumladan, g'arb va sharq mamlakatlarining ijtimoiy hayotini tartibga soladigan munosabatlarda tafovutlar bo'lib, Yevropada demokratik(huquqiy) masalalar ustuvor bo'lsa, Sharq mamlakatlarida esa diniy, axloqiy normalar bilan tartibga solish mexanizmi yuqori hisoblanadi. Bu borada «Islom dinining muqaddas manbaalaridan bo'lmish Qur'on va Hadislarda ham odob-axloq, ayollarning turmushdagi o'rni va vazifalari, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga keng o'rin berilgan».

Xususan, Qur'oni Karimning Anfol surasining O'ninchi juz'ida «Allohga va Rasuliga itoat qilingiz va nizolashmangiz, aks holda sustlashib ketursiz va bo'yingiz (obro'yingiz) ketib qolur. Sabr qilingiz! Albatta, Allah sabr qiluvchilar bilan birgadir» deyilgan. Ta'kidlash joizki, Qur'oni Karim va Hadislarda oilani muqaddas dargoh ekanligiga, ota-onalarning oila va farzandlari oldidagi burch va mas'uliyatlariga, farzandning esa ota-onasi oldidagi vazifalari haqidagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan pand-nasihatlar mavjudligi bilan ham ahamiyatlidir.

Qur'oni Karimda «Parvardigoringiz, yolg'iz uning o'ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning birovi yoki har ikkisi sening qo'l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab «uf» tortma va ularning (so'zlarini) qaytarma! Ularga (doimo) yaxshi so'z ayt! Ular uchun, mehribonlik bilan, xorlik qanotini past tut hokisor bo'l va: «Parvardigorm, meni (ular) go'daklik chog'imdan tarbiyalab o'stirganlaridek, Sen ham ularga rahm-shafqat qilgin, deb (haqlariga duo qil!)» (Isro surasi, 22-24oyatlar), deya ta'kidlaydi. Bu oyat mazmuniga ko'ra Allah taolo ota-onaga yaxshilik qilishni bevosita o'ziga

ibodat qilish bilan teng qo'ygan, ota-onalar keksayib, zaiflashib qolgan hollarda ularga qanday muomala qilish kerakligini uqtiruvchi quyidagi jihatlarga urg'u berilgan:

1. Hech qachon ularga «uf» demaslik.
2. Beadablik bilan so'zini qaytarmaslik.
3. Ularga ehtirom bilan xushmuomalada bo'lish, yaxshi gapirish.
4. Ota-ona oldida mehribonlik bilan hokisor bo'lish.
5. Minnatdorchilik yuzasidan Allohdan ularga rahmu-shafqat so'rash». Shu o'rinda aytish joizki, har bir farzand ota-ona bilan munosabatga kirishish jarayonida Qur'oni Karimda keltirilgan beshta jihatga e'tiborli bo'lishi, har biriga amal qilishi o'zaro munosabatlarni doimiy ravishda ijobiy bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari Kaykovus o'zining «Qobusnoma» asarida farzand tarbiyasida ota-onaning o'zaro munosabatlari, o'zaro ijobiy qarashlari, shaxsiy namunalari kabi xislatlari bilan yondashish zarurligiga to'xtalgan. «Qobusnoma» asarining asosiy mazmuni farzandlar ota-onani, oila a'zolarini, shuningdek, jamiyatdagi barcha insonlarni hurmat qilish, ardoqlash, e'zozlash hamda vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalanishi haqidagi g'oyalari bayon etilgan.

Kaykovusning yuqorida keltirilgan qarashlari «Qobusnoma» asarining beshinchi «Ota-ona haqini bilmak zikrida» bobida ota-onani hafa qilmaslik haqida «har farzandki, oqil va dono bo'lsa, hech vaqt ota-onaning mehr haqini ado qilmoqdin xoli bo'limg'usidir. Ota-ona farmonbardordur. Bu farmonbardorlikda ham ish bo'lg'ay va ham farmon bo'lg'ay. Ota-onaning ishi seni parvarish qilmoqdur va farmoni senga yaxshilik o'rgatmoqdur. Ey farzand, shul vajdin otaonangni sag'al ham ranjitmag'il» degan fikrlarni bayon etgan. Bundan tashqari u oilaviy munosabatlar haqida «Nima eksang, shuni urasan» mazmunidagi maqoli orqali oilada bolani tarbiyasi bilan shug'ullanishda «biz ijobiy tarbiya bersak, komil inson bo'lib voyaga yetishi, aksi bo'lsa bu bolaning kelajagiga zarar yetishi mumkinligi» to'g'risidagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlarini izohlaydi.

Xalqimizda «oshsiz uy bo'lishi mumkin, lekin nizosiz uy bo'lmaydi»-degan

naql bo'lib, bu naql oila qanchalik muqaddas dargoh ekanligi, undagi o'zaro munosabatlar farzand tarbiyasiga juda katta darajada ijobjiy va salbiy ta'sirga egaligi, oilada kelishmovchilik yoki nizo sodir bo'lganda ham oqibati og'ir natija va jarayonlarga olib kelmasligini aytib o'tish joiz. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oilada uchraydigan har qanday qiyinchiliklarga sabr-qanoat, ijobjiy muomala va munosabatlar bilan yondoshilsa, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishini oldini olish mumkin bo'ladi. Jumladan, oilada ota-onalar farzandlarini yosh davrlar xususiyatlari inobatga olgan holda ularni har tomondan psixik, aqliy, fiziologik, ma'naviy-ma'rifiy, insonparvarlik xislatlarini rivojlantirib, kamol toptirishi zarur. Bu esa o'z navbatida farzand va ota – ona o'rtasida ro'y berishi mumkin bo'lgan turli kelishmovchiliklarni oldini olishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2019. – B. 21.
2. Mirzarahimova G. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti.Oilada otaona va farzand munosabatlarining psixologik muammolari // «Oriental Art and Culture» Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020 ISSN 2181-063X. – B.148.
3. Shoumarov G'.B.Oila psixologiyasi.Darslik. – T.: 2011. – B. 14.
4. Mansur A. Qur'oni Karim: ma'nolarining tarjima va tavsifi. – T.: Toshkent islom universiteti, 2004. – B. 183.
5. Salayeva M.S.O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T.: 2005. – B. 15.
6. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Yangi asr avlod, 2016. – B.30.
- 7.Ibaydullayeva,U.,&Mamatqulova,Y.(2022).ЎСМИРЛАР ЎРТАСИДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ. Журнал

Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6).

8. Каршибаева, Г. А., & Ибайдуллаева, У. Р. Оила психологияси.

Ўқув қўлланма. “Баёз” нашириёти. Тошкент–2022 й.

9. Ибайдуллаева, У. & Маматкулова, Ю. (2022). Ota-onal va farzandlar o'rtasidagi inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam korsatishning oziga xos xususiyatlari. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 471-473. 10. Ibaydullaeva, U., & Qodirova, M. (2022). ОИЛАДА ФАРЗАНДЛАРДАГИ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ДЕЗАДАПТАЦИЯ ХОЛАТЛАРИ.

Журнал

Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6).

11. Ibaydullaev, T. (2022). A study of national clothes and games as an individual part of cultural heritage. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 13-15.

12. Ibaydullaev, T. NATIONAL CLOTHES AND GAMES AS AN INDIVIDUAL PART OF CULTURAL HERITAGE. *DIGITAL ACCESS AND SERVICES FOR LIBRARY MANAGEMENT*.